

**Jondor tuman Axborot-kutubxona markazi.  
Axborot-bibliografiya xizmati**



## **“ Bibi Maxsumai pok”.**

**( Jondorning qadimiy qadamjosi tarixi haqida)**

**Yo'l ko'rsatkich.**

**Jondor-2026.**

## So'z boshi.

Buxoroning ko'xna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma'no bor. Bu yerdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari, o'lmas an'analari asrlar osha yashab kelmoqda.

Sh.Mirziyoev

Mustaqillik sharofati ila O'zbekiston obod bo'layotir. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Yurt obodligi ko'ngil obodligidan boshlanadi." Ko'ngil obodligi esa o'zligini, o'tmishini, qadr-qimmatini anglash, buyuk ajdodlar merosiga e'tiqod, e'tibor va hurmat degani. To ko'ngil obod bo'lmas ekan, yurt obod bo'lmas. Ko'ngil larni obod etguvchi xilqat esa bu ma'rifat, ma'naviyat, ilmdir. Istiqloldan keyin tarixiy qadamjolar, buyuk o'tmishdoshlarimiz mangu xobgoxlari-maqbarayu avliyolar obod bo'lmoqda. Imom al-Buxoriy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Qizbibi xilxonalari, ularga tutash masjidu madrasalar xalqimizning muborak ziyoratgohiga, ular merosiga aylanib bormoqda. Turonzamin, qolaversa Buxoroyi sharif dovrug'ini olamga yoyishda, Jondor hududidagi qadimda gullab yashnagan shaharu qishloqlar, allomayu avliyolarning ham o'z o'rni bor.

Jondor hududida joylashgan Varaxsha, Xunbun-Shahri Islom, Torob, Romush, Bibi Maxsumai Pok tepaliklari eramizdan oldingi IV-VI asrlarda bunyod etilganligi ko'plab tarixiy asarlarda keltirilganki, bundan shu hududda odamlarning yarim va to'la o'troqlashishi, dastlabki manzilgohlar paydo bo'lishi va shaharsozlik rivojlanish jarayoni yanada qadimiyligini anglatadi. Birgina Varaxsha shahri ulug'vorligi va obodonligi bilan Sharqu G'arbni lol qoldirgan. Bu

qal'adagi saroy, ko'shk, miniralar, savdo va hunarmandchilik rastalari, devoriy suratlar, ganj va bronzadan yasalgan haykalchalar o'tmishdoshlarimizning noyob madaniyati, san'ati va turmush tarzini belgilab turadi. Bunday yuksak baho Torob, Romush, Xunbun-Shahri Islom, Bibi Mag'sumai Pok tepaliklari va ularda yashab o'tgan ajdodlarimizga ham yarashiqlidir.

### **Tepaliklar -qadim qo'rg'onlar.**

**Tepaliklar...** Qa'rida ming yilliklar tarixi yashiringan, minglab insonlarni bag'riga olib yotgan sirli, tilsimotli, qadim kentlar, qo'rg'onlar... Tumandagi tepaliklar Buxorodan tokim Poykentgacha Samonchuq, Ushot, Bibi Maxsumai pok, Qo'shtepa, Tali demun, Xo'jai xubon, Xunbin tepaliklari mavjud.

**Bibi Maxsumai Pok.** Samonchuq qishlog'ining janubi-g'arbiy tomonida Bibi Maxsumai pok tepaligi joylashgan. Bu yerda ikkita tepa yonma-yon turibdi. Sathi 10 gektar, balandligi 10-12 metr keladigan tepalik Bibi Maxsumai pok. Qadimda bu tepalik shu qishloq hukmdori yashagan qo'rg'on, kichik tepada esa uning xizma-tida bo'lganlar yashagan. Ikkinchisi esa shu tepaga yaqin, 50-60 metr g'arb tomonidagi kichik tepalik. Bibi Maxsumai pok avliyosifat ayol bo'lganliklari va shu yerda dafn etilganliklari bois tepalik shu avliyo ayol nomi bilan atalgan. Hozirda bu yodgorlik qabristonga aylantirilgan.

**Ushbu yo'l ko'rsatkich keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan**

**Bibi Maxsumai Pok tepaligi joylashgan manzil : Buxoro viloyat Jondor tuman Samonchiq MFY Murg'ak qishlog'i.**

## Adabiyotlar.

1. **Ҳамро Асадов. Аждодлари қимматли юрт : Адабий, тарихий-публицистик нашр.-Бухоро : Бухоро нашриёти, 2011.- 88 б.**
2. **Музаффар Турсунов. Жондор ва жондорликлар: Туман тарихидан лавҳалар.1938-1995 йиллар. - Бухоро.: “Бухоро ”нашриёти, 1995.-218.**
3. **Ҳамро Асадов Беш мўъжиза -беш тарих: Тарихий публицистик лавҳалар.- Бухоро : Бухоро нашриёти, 2008 .-50 б.**
4. **Ражабов,Қ. Жондор тумани тарихи : Қисқача маълумотнома : Қ.Ражабов, Ф. Темаров .- Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2015. - 52 б.**
5. **Раъно Раҳимова ва бошқалар. Аждодлардан мерос Жондор : Жондор тумани тарихидан илмий оммабоп асар .-Бухоро : “ Бухоро вилоят босмахонаси ”МЧЖ нашриёти, 2025.-376 б.**
6. **Нуруллаев , А. Бухоро тарихида Жондор тумани ( ибтидоий даврдан 1920 йилгача ) [ Матн ]/А. Нуруллаев; муҳаррир А. Каландаров ; тузувчи А. Нуруллаев ; таржимон Ғ.Рабиев.-Бухоро : Sadriddin Salim Buxoriy нашриёти , 2024.-344 б.**